E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

# TABIATSHUNOSLIK O‘QITISH METODIKASINING TA’LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti

boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda va har tomonlama tarbiyalashda tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi fani katta o‘rin egallaydi. Shu predmetni o‘rganish kichik yoshdagi o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi, ekologik tarbiyasini rivojlantiradi.

**Kalit so‘zlar**

Tabiat, kuzatish, ekologiya, tarbiya.

Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi, bakalavr talabalar oldiga o‘quvchilarga tabiat haqidagi bilimlami berishda oddiydan murakkabga qarab borish; boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiatshunoslik darslari orqali tabiat haqidagi bilimlarni oddiy tushunchalar berilishi kerak.

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilari darsda bilimlarni tezda o‘zlashtira olmaydi. bolalar tafakkuri rivojlanmasligi natijasida ham bilish faoliyatlari turli xilda rivojlangan bolalar maktabda ta’lim-tarbiya oladilar. Bunday har xil kontinentga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim jarayonini boshqarish tabiatshunoslik o‘qituvchisi irodali o‘z kasbini mohir ustasi bo‘lishi kerak. Shunga qarab o‘qituvchi dars berishni turli usullarini qollashi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa materiyani birlamchiligi ongning ikkilamchiligi haqidagi dialektik materializm qonuniyatlarini o‘qituvchi oddiy so‘zlar bilan tushuntirishi va tabiat muzeylariga ekskursiyalar uyushtirib ko‘rsatib tushuntirishlari lozim.

Hozirgi zamon tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi ta’lim- tarbiyaning yagona qismi, shakl va metodlarning yaxlit sistemasi sifatida qaraydi.

O‘qituvchi va o‘quvchilaming butun o‘quv ishi doimo rejali ravishda rivojlanib boradi. Har bir mavzularni o‘qiganlarida yildan yilga ularning dunyoqarashi, tafakkuri, ko‘nikma va malakalari rivojlanadi. Ta’lim va tarbiya metodlari asta-sekin murakkablashdi.

Dialektik materializm qonuniyatlarini bilishi, o‘qituvchiga tarbiyalovchi ta’lim jarayonining bir butunligi va qarama - qarshiliklarini (metodlarning, ko‘rgazmalilikni qo‘llanishi miqdori, sifatini) tushunishga yordam beradi.

O‘qituvchi tabiatshunoslik kursining barcha mavzulari o‘zaro bog‘liqligini, har bir keyingi mavzu oldingisi asosida tuzilganligini hamisha e’tiborga olishi kerak.

Shuningdek, o‘quvchilarning tabiat mavzusini o‘rganishi ma’lum bir ma’noda boshqa dars va boshqa fanlarga ham o‘tadi. Demak, boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslikning butun kursi integratsion va fanlararo aloqalar hisobidan tuzilgan (integratsiya — ilm-fanning aloqa va yaqinlashish jarayoni).

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

Integratsiyalashgan aloqalar shunday aloqaki, «O‘zbekiston — globus va xaritada» degan juda keng mavzuga kiradigan kichik mavzuchalar o‘zaro chambarchas bog‘liq, asosan muhim tabiatshunoslikga oid tushunchalar bir mavzudan ikkinchi mavzuga o‘tadi, shu tariqa yanada chuqurlashtiriladi.

O‘qituvchi o‘z ishini shunday tuzishi kerakki, o‘quvchilarda shakllangan tushunchalar keyinchalik rivojlanib, aniqlashtirilsin. Ba’zi darslarda integratsiya aloqalari tabiatni ona tili darsida, o‘qish darsida, g‘o‘za, boshqa o‘simliklar, hayvonlar haqidagi misollar bilan matematika darsida, shuningdek, mehnat darsida ham ko‘rinadi. Fanlararo aloqalar o‘qituvchiga tabiatshunoslikga oid tushunchalarni shakllantirish ishlarini nafaqat tabiatshunoslik darslarida, balki boshqa fan darslarida ham o‘tkazilishini taqozo etadi: fanlararo aloqalar o‘quv jarayonini kengaytirib beradi. Tabiatshunoslik qishloq xo‘jaligi mehnati bilan bogliqdir. O‘z o‘lkasining madaniy va yovvoyi o‘simliklari, hayvonlari, tuprog‘ining tuzilishi va qayta ishlanishini o‘rganish kabi tabiatshunoslikga oid bilimlar qishloq xo‘jaligi mehnatining nazariy negizi sifatida zarurdir. O‘z navbatida o‘quvchilarning o‘quv-tajriba maydonchasida, qishloq xo‘jaligi korxonalariga uyushtirilgan sayohatlardan olgan amaliy bilimlari, ko‘nikma va malakalari tabiatshunoslik darslarida keng qo‘llanilishi kerak. Tabiat hodisalarini kuzatish ona tili darslarida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish uchun keng material bo‘la oladi. Tasavvurlar tabiat (qonuniyatlarini o‘rganishni kuchaytiribgina qolmay nutqning rivojlanishiga ham yordam beradi.

Badiiy so‘z tabiatning go‘zalligi va mukammalligini kuchliroq sezishga imkon yaratadi (masalan, tabiat haqida she’r o‘qish). Tabiat haqidagi she’rlar nafaqat mazmunan qulay, balki tabiat timisollarini ta’riflovchi musiqiy va ohangdor bo‘lishi ham kerak. Tabiatni she’riy o‘zlashtirish jarayoni o‘qituvchi rahbarligida bo‘lishi kerak, u o‘quvchilarning taassurotlarini aniqlaydi va sistemaga soladi, estetik hissiyotlami ko‘rsatishda chiroyli aniqlovchilar topishga undaydi. Tabiatshunoslik darslarida she’riy asarlar, badiiy rassomchilik asarlaridan foydalanish o‘quvchilarning tabiatni jo‘shqin qabul qilishini kuchaytiradi, shuningdek, ijodiy tasviriy faoliyatga qiziqishini orttiradi. Badiiy asarlar ko‘rgazmasini borib ko‘rish tabiat go‘zalliklariga qiziqishni kuchaytiradi. Tabiat hodisalarini o‘rganishda, tabiatshunoslik bo‘yicha daftarlarga ob’yektning aslidan va tabiat hodisalari haqida hikoyalar, rasm va jadvallar tuzib to‘ldiradilar. Sayohat davrida, amaliy mashg'ulotlarda, o‘quv-tajriba maydonchasida va joylarda yig'ilgan barcha tabiat materiallari rasm darslari uchun ajoyib manba bo‘ladi. O‘quvchi o‘rganayotgan o‘simlik yoki boshqa tabiat ob’yektini chiza turib, unga diqqat bilan qaraydi, undan oldin e’tibor bermagan xususiyatlarini topadi, muhim belgilami umumiylashtirishni o‘rganadi. Rasm chizish taassurotni oshiradi, tasavvurni kuchaytiradi, ya’ni fikrlash qobiliyatini faollashtiradi. Musiqa darsida bolalar tabiat, o‘simliklar haqida kuylaydilar. Tabiatshunoslik bo‘yicha kuzatuvlar va amaliy ishlar matematika darsi bilan ham bog‘liqdir. Matematika darsida olingan bilimlar, ko‘nikma va malakalar tabiatshunoslikdagi amaliy ishlarda foydalaniladi: yer yuzasining shaklini, sinf planini, maktab maydonchasini, sayohat yo‘lini chizishda va h.k. Tabiatshunoslik kursining jismoniy madaniyat va sport bilan aloqasi katta ahamiyatga ega. Birinchi sinfdan boshlab o‘quvchilarga sog‘liqlari haqida ma’lumot beriladi, sog‘liqni saqlashda jismoniy madaniyat va sportning ahamiyati haqida bilim oladilar. O‘quvchilarga gavdani to‘g‘ri tutishning ahamiyati, toza havoda o‘yinlarning zarurligi, sport bilan shug‘ullanishning foydaliligi tushuntiriladi

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

Pedagogika ta’lim va tarbiyaga tarbiyalovchi deb uning ikki tomonini ko‘rsatib beradi. Ta’limning tarbiyalovchilik xarakteri uning mazmuni bilan belgilanadi. Boshlang‘ich maktabda tabiatshunoslik fanining ta’limiy va tarbiyaviy vazifalari o‘qitish jarayonida birgalikda echiladi. Tabiatshunoslik o‘zining mazmuni va metodlari bilan o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalash uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. Uning asosiy maqsadi bilimlar yigindisini faqat esda qoldirish bo‘lib qolmasdan, ularni ishonchga aylantirish. Ishonch insonlarga, atrof olamga bo‘lgan munosabatda, odatlarda, ish tutishda, xulk-atvorda namoyon bo`ladi. Bunda birinchi tabiatshunoslikning turmush bilan aloqasi ko‘rsatiladi. O‘quvchilarni hayotining bir me’yerda borishini xalq-xo‘jalik rejalari, davlat qarorlari tushunarli shaklda tanishtirib boriladi.

Tabiatshunoslik bo‘yicha mashg‘ulotlarda o‘qituvchi o‘quvchilarni atrof olam bilan tanishtiradi, tabiatdagi jarayonlarning moddiyligini ochib beradi, inson tabiat to‘g‘risidagi bilimlar bilan qurollanib, undan qanday foydalanayotganlarini ko‘rsatadi. Hikoya qilib ahamiyati to‘g‘risida xulosa chiqarib, tabiatni muhofaza qilish tadbirlari ustida to‘xtab, mamlakatimizdagi tabiat boyliklariga alohida munosabatda bo‘lishni aytadi va tabiat muhofazasi davlat darajasidagi vazifa tushuntiradi.

Ta’lim bilan birgalikda har tomonlama tarbiyalash ham vujudga keladi. Har tomonlama tarbiyalashning vazifalariga: maktab o‘quvchilariga mehnat madaniyatini singdirish, odamlar mehnatiga hurmat uyg‘otish, turli kasblar bilan tanishtirish va boshqalar kiradi.

Tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonida dunyoni ilmiy tushunish asoslarini shakllantirish uchun tabiatga insonparvarlik, munosabatini, vatanparvarlikni va go‘zallikni tushunishini tarbiyalash kerak.

O‘lka tabiati, daryolar, o‘rmon massivlari to‘g‘risidagi matnlarni o‘rgata borib o‘qituvchi Respublikamizning xalq xo‘jaligi uchun ularning ahamiyatini ta’kidlab o‘tadi. Bu vatanparvarlik hissini tarbiyalaydi.

Shuning bilan birgalikda tabiatshunoslik darslari-mehnat tarbiyasi maktabi hamdir. Odam mehnati – uning jismoniy va ma’naviy sihatligining manbai ekanligiga ishontirib, o‘qituvchi mehnatiga muhabbatni, astoydil mehnat qilishi istagini, mehnat ahliga hurmatini tarbiyalaydi.

Tabiatshunoslikni o‘qitish o‘qituvchiga o‘quvchilar tafakkurini, ijodiy va bilish faolligini rivojlantirish uchun boy material beradi. Tabiatshunoslik bo‘yicha mashg‘ulotlarni sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar ochiq havodagi o‘uyinlar, o‘lkashunoslik ekskursiyalar bilan chambarchas bog‘lamoq zarur. Bu o‘quvchilarning yaxshi bilim olishgagina emas, shaxsni shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinfda tabiatshunoslikni o‘qitishning maqsadi botanika, zoologiya, ekologiya, anatomiya, fiziologiya, gigiena, jugrofiya fanlarining elementar asoslarini berishdir.

Tabiatshunoslikni o‘rgana boshlashdanoq o‘quvchilarda o‘simlik va hayvonot dunyosi to‘g‘risida moddiy tushunchalarni shakillantirib borish, amaliy ishlarni bajarish, tajribalar, kuzatishlar, ekskursiyalar o‘tkazish jarayonida olingan tushunchalar ilmiy nuqtai nazaridan tasdiqini berishi kerak.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari uchun eng aniq, ko`zga tashlanadigan aloqalargina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun 1-2 sinf o‘quvchilari tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni kuzatib, kuzdagi va qishdagi hodisalar sovish, bahordagilar esa ilish bilan bog‘liqligini payqaydilar. 3-4 sinflarda

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

kuzatishlar natijasida endi tabiatning ayrim elementlari o‘rtasida oddiy bog‘lanishlar borligini aniqlaydilar. Nima uchun havo haroratining o‘zgarishini, nima uchun kun bilan tun almashishini bilib oladilar.

Tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklaridan tejab-tergab foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalani muhokama qilishda iqtisodiy va ilmiytexnik omillar bilan birga uning axloqiy tarbiyaviy tomonlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Yetti yoshli o‘quvchilarni jonajon o‘lka tabiati namunasida axloqiy tarbiyalashda "Atrof tabiat bilan tanishtirish" predmetining imkoniyatlari juda kattadir.

Dars mashg‘ulotlari orqali bolalarni axloqiy tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifa qilib qo‘yiladi:

1.Jonajon o‘lka tabiati bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarda unga nisbatan muhabbat va faxrlanish hissini uyg‘otish.

2.Tabiat boyliklarini saqlash, ko‘paytirishga o‘rgatish asosida ijtimoiy mulkni tejab asrash malakasini hosil qilish.

3.Tabiatga nisbatan mexr-muhabbat uyg‘otib, ijobiy munosabatlarda bo‘lishga odatlantirish, shu yo‘l bilan o‘quvchilarda insoniylik, o‘zaro hurmat hissini o‘stirish.

O‘quvchi yoshlarga ekologik bilimlar berish davr talabidir. Ekologik bilimlar yuzasida bolalarga puxta bilim, o‘quv va malakalar hosil qilishlari va o‘quvchildarda mustaqillik ko‘nikmalari o‘stirishga yordam beradi. Ekologik bilim va tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari qo‘yidagi natijalarni beradi: birinchidan o‘quvchilarga zamonaviy ekologik tafakkur shakllanadi; ikkinchidan, bolalarda mamlakatning haqiyqiy egalari qilish hissini tarbiyalab, yuksak ekologik madaniyatni tarkib toptiradi; uchinchidan, yoshlarda psixologik, ahloqiy sifatlarni o‘stirib, ularni intizomlilikka va tejamkorlikka o‘rgatadi.

Shu o‘rinda o‘quvchilar bilan go‘zal tabiat haqida suhbatlar tashkil etish, uni asrash yuzasidan olib boriladigan ulkan nashrlar xususida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarga yashil tabiat quchog‘idagi borliqni sistemali ravishda o‘rgatib borish jarayonida ekologik bilim va tarbiyaning o‘ziga xos tomonlari singdiriladi; insonning mehnat faoliyati bilan tabiat o‘rtasidagi aloqalar tushuntirilib, tasavvur hosil qilinadi. Boshlangich ekologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish orqali o‘quvchilarning bilish qobiliyatlari o‘stirilib ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Shu kabi o‘qish ko‘nikma va malakani singdirish uchun o‘qituvchi o‘qitishning turli metod hamda metodik usullaridan foydalanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Nuritdinova.“Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi” Toshkent, O‘qituvchi 2005-yil

2. A.Hamidov A.To‘xtayev va boshqalar. “Botanikadan o‘qituvchilar uchun qo‘llanma”. Toshkent O‘qituvchi 1999 yil

3. H.Vaxobov, O.T.Mirzamahmudov “Geografiya o‘qitish metodikasi uslubiy qo‘llanma” Namangan -2016 yil

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

4. Umaraliyeva. B. R. “Educational importance of teaching geography in secondary schools” International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.12 (2022): 348-350.

5. Umaraliyeva. B. R. “Yordamchi maktab o‘quvchilarida geografiya fani orqali tarbiyani shakllantirishda sharq mutafakkirlarining tarbiya to‘g‘risidagi qarashlaridan foydalanish masalalari” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 2023 yil 519-523b

WORDLY
KNOWLEDGE